

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

TYPES OF LOCATION OF VILLAGES IN SAMARKAND REGION

Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering, teacher
Kuysinova Farangiz

Annotatsiya: Mazkur Maqolada Samarqand viloyati qishloq aholi punktlarining joylashuv tizimi, aholining zichligi, shahar va qishloqlarning uzviy bog'liqligi va tabiiy iqlim sharoitlarni o'rganib, aholiga madaniy- maishiy xizmat qilish tizimini tashkil qilish uchun viloyat tumanlari zonalarga bo'lib chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq, aholi, joylashuv, punkt, hudud, zona, hudud, punkt, markaz, element.

Samarqand viloyatida qishloq aholi punktlarining joylashish va hududiy mujassamligining o'ziga xos jihatlari, ularda istiqomat qiluvchi aholining zichligi qishloq hududlardagi aholi joylashuvi bo'yicha alohida turlar ajratilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi: voha va tog' oldi vodiylardagi zich joylashuv (tog'-vodiylar joylashuvi); yaylov chorvachiligi hamda dehqonchilik rivojlangan hududlardagi joylashuv; asosan yaylov chorvachiligi rivojlangan hududlardagi joylashuv va tog'li hududlardagi joylashuv.

Umuman olganda, qishloq aholisining ushbu joylashuv turlari bugungi kunda ham saqlanib qolgan, lekin ularning har birida sezilarli sifatiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, shahar va qishloq aholi punktlarining o'zaro bog'liqlikdagi rivojlanishi va joylashuvning integrallashgan tizimlarining shakllanish jarayoni tezroq kechmoqda, cho'lli hududlarda esa yondosh yerlarni o'zlashtirish asnosida joylashuvning mahalliy o'choqlari yaratilishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Sug'oriladigan yerlardagi dehqonchilik hududlarida joylashuvning o'ziga xos turi shakllangan. Bu yerlarda tumanlar bo'yicha ishlab chiqilgan rejalashtirish sxemalari asosida "tep-tekis joylarda" ierarxiya darajasi turlicha bo'lgan posyolkalar qurilgan bo'lib, u joylardagi aholi va aholi punktlarining zichligi, eski o'zlashtirilgan hududlardan farqli o'laroq, aytarli yuqori emas. Shu bilan bir qatorda, tog' oldi hududlarida uzumchilik, bog'dorchilik va lalmikor dehqonchilik uchun o'zlashtirish ishlari ham olib borildi. Shuning uchun ham bu hududlarda aholi zichligiga, muvofiq tarzda, qishloq aholi punktlaridagi aholi gavyumligi ma'lum darajada ortib bordi.


Samarqand viloyatining qishloq joylaridagi aholi joylashuvining har-xil turlari shakllandi. Biroq, qishloq aholisi sonining o'sishi va uning migrasiyaga moyilligining past darajasi, garchi qishloq joylardagi xo'jalikning ko'p mehnat talab qiluvchi tarmoqlarini rivojlantirish uchun ayrim dastlabki shartlarni yaratib bersada, baribir, qishloqdagi urbanizatsion jarayonlar kuchayishiga va joylashuvning hududiy tuzilmalari takomillashtirilishiga yetarlicha ta'sir ko'rsatmaydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Samarqand viloyatida qishloq xo'jalik hududlaridagi aholi joylashuvi shakllanishidagi o'ziga xos jihatlari aholi punktlarining kelgusida turli tip hamda ierarxiya darajasiga ega joylashuv tizimlarini shakllanishiga qaratilgan rivojlanishida mavjud bo'lgan real tendensiyalarni inobatga olish zarur ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu jarayon negizida qishloqdagi ishlab chiqarish kuchlarining hududiy jihatdan oqilona tashkil etilishi, shahar va qishloq aholi punktlarini o'zaro bog'liq ravishda rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib

beruvchi ijtimoiy va transport ifratuzilmalarini rivojlantirishga asoslangan aholi punktlarining integrasion potensialini oshirish kabi vazifalar yotishi lozim. Bu, o‘z navbatida, joylashtirish asoslarini va uning shaharsozlik potensialini kuchaytirish, shuningdek Samarqand viloyatining qishloq hududlaridagi joylashuv areallarida turmush kechirish makonlarini istiqbolli tashkil etilishi uchun asoslarni shakllantirib beruvchi eng muhim elementlarni aniqlash imkoniyatini yaratib beradi.

Qishloq hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash zaruriyatini hisobga olib turib, qishloq aholi punktlarini nafaqat Samarqanda joylashuv tuzilmasidagi eng ommaviy vakillari, balki yirik shaharlar aholisi va qishloq aholisi o‘rtasidagi bog‘lovchi elementlar sifatida qabul qilib, ularni imkon qadar jadalroq rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim. biroq, aholi punktlarining ushbu toifasi uchun ijtimoiy-iqtisodiy potensialni shunchaki oshirishga asoslangan yo‘nalish muammolarni to‘liq hal qilinishini ta‘minlab bermaydi. Ob‘ektiv voqelik joylashuvning ikki – shahar va qishloqqa xos bo‘lgan shakllari o‘rtasida uzviy bog‘lanish va ularning rivojlanishida ma‘lum izchillik mavjud ekanidan dalolat beradi. Buning natijasida shahar va qishloq aholi punktlarining funksiyalari o‘zaro boyitiladi va to‘ldiriladi hamda joylashuvning tizimli ko‘rinishlari shakllanadi. Shuning uchun, qishloq aholi punktlari rivojlanishidagi asosiy yo‘nalishi, bu o‘zaro bog‘liq aholi punktlari guruhlarining funksional-tuzilmaviy elementlari orqali shakllanishidan iborat deb qaralmoqda. Bunda qishloq aholi punktlari asosiy, ya‘ni agrar-sanoat ishlab chiqarish, hordiq chiqarish, turizm, davolash kabi funksiyalari hisobiga o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini kuchaytirish hamda guruhli joylashuv markazlari bo‘lgan shaharlarning etakchi funksiyalarini to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

“SNIIEP grajdanselstroy” institutining ilmiy izlanishlari asosida ,QMQ 2 08. 01- 94,O‘zbekiston Respublikasi qurilish klematik zonasi kartasi,TashZNIIP me'morchilik iqlimsunoslik institutiga ishlab chiqilgan hududlardagi tabiiy- iqlim sharoitlarga asoslanib, UzNIIP gradostroitelstva va SamGASI dosenti R.T.Toshtemirovning xo‘jalik turar joylariga ta'sir qiluvchi omillarini o‘rganib chiqqan ilmiy izlanishlari asosida respublikamiz hududlari quyidagi joylashuv zonalarini bo‘lingan(1-rasm). [2].



1– rasm. O‘zbekiston respublikasi qurilish – iqlimiy zonalarining kartasi [2].

Umuman olganda, aholi punktlari (ham shahar, ham qishloq aholi punktlari) joylashuvining shakllanishi va o‘rning o‘ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi. Quyida Samarqand viloyati qishloq aholi joylashuvining zonalariga bo‘linganligini ko‘rib chiqamiz.

1.Bir teksda yoyilib joylashtirilgan zona. Bu zonaga iqlimi mu‘tadail bo‘lgan viloyat shaharlari tumanlari kiradi. Bular Samarqand, viloyatlarining ba‘zi shahar va tumanlarixususan Bu zona respublikamiz hududlari va Samarqand viloyatida ham keng tarqalgan bo‘lib tekis rivojlangan dehqonchilik va chorvachilikning turli xillari bilan xaraterlanadi.Aholi punktlari orasidagi masofalar 10-15 km (chetki qishloqlardan to tuman markazigacha bo‘lgan masofa 30-60 km) tashkil etadi.Yo‘l tarmoqlari ham zich tashkil qilingan.Zonada manzilgohlar tuzilishi o‘rtacha aholiligi bilan xarakterlanadi.Qishloq manzilgohlarida aholining o‘rtacha soni 300-500 kishi atrofida, markaziy qishloqlarda 700-800 kishi. Tumanlar o‘rtacha 15-16 xo‘jalikdan iborat bo‘ladi.Markaziy qishloqlar bilan bir qatorda birdan uchtagacha ishlab chiqarish va chorva fermalari qishloqlari ham bo‘ladi.Tumanda yashovchi qishloq aholisining soni 15-25 ming kishigacha,shahar aholisi 30-40 ming kishigacha. Tumandagi shaharlarning soni bir- ikkta bo‘lishi mumkin (Bulung‘ur, Bulung‘ur shahri,Urgut Urgut shahri,Pastdarg‘om,Juma shahri, Kattaqo‘rg‘on,Kattaqo‘rg‘on shahri).

2.Mozaykali joylashuv.

Bu yerda qadimdan o'zlashtirilgan hududlar(Ishtixon,Urgut,Payariq,Dahbet)kiradi.Aholisi zich hududlar, aholisi siyraklashgan hududlar bilan almashinib turadi.Ishlov berililadigan erlarninig tarqoqligi,ko'p hollarda aholisi kam bo'lgan joylashuv shakllarini paydo bo'lishiga olib keladi. Bu zonada manzilgohlarning tarkibini xususiyatlari sochilganligi va aholisi kamligiga qaramay yaxshi rivojlangan transport arteryalari mavjudligi va tumanlarninig ixchamligidir.Markaziy qishloqlarda o'rtacha aholi soni juda kam 200-400 kishi.Tumanlarda markaziy qishloqlarda 2-6 ming kishi. Tuman markazlarida- shaharlarda hajmi kengroq.Xo'jalikning markaziy qishlog'ida ma'muriy bo'ysinuvchi manzilgohlarning joylashish radiusi 5- 8 km eng chetga joylashgan aholi manzilgohi bilan tuman markazigacha masofa 30 km atrofida tumanlarda ho'jaliklar soni 15-17 gacha. Xo'jaliklarda 2-3 ta kichik fermer xo'jaliklar bo'lib har bittasida 2-10 tagacha oddiy qishloqlar bo'ladi.

3.Tekis uzluksiz joylashgan model zonasi. Bu zonaga iliq iqlim sharoiti dehqonchilikninig tekis, tezkor, turli profildagi yo'nalishlari, yirik chorvachilik majmualari shahardan tashqarigi hududlarning uzluksiz haydalgan erlari bo'lgan regionlar kiradi.Bular Samarqand, viloyatiningba'zi tumanlaridir. (Jomboy, Oqdaryo, Pastdarg'om, Ishtixon, Payariq, Tayloq,Narpay). Bu zonaga ko'p hollarda ko'p klometrli uzluksiz zanjirlarni tashkil qiluvchi yirik qishloq xo'jalik manzilgohlari kiradi.Tumanlarda 18-20 ta xo'jalik bo'ladi va ularga ishlab chiqarish bo'limining 1-2 ta qishloqlar kiradi.Ular mavsumiy qizg'in dala poliz ishlari davrida to'ldiriladi.

Hududlarning ixchamligi xo'jaliklarnig birlashuvini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.Markaz sifatida ko'pincha tuman hududlarida joylashgan kichik shaharlar va shahar tipidagi qishoqlar ishtirok etadi. Fermer xo'jaliklaridagi qishloqlarning aholisi 500-800 kishi, markaziy qishloqlarning aholisi 1-2 ming, tuman markazlarining- shaharlarining aholisi 30- 60 ming. Eng chetdagi aholi turar joylaridan tuman markazlarigacha bo'lgan masofa 20-25 km.

4.Bir joyga yig'ib joylashtirilgan model zonasi. Bu murakkablashgan konfigurasiyali zona hisoblanadi zonaga Samarqand viloyatlarining tog' oldi va cho'l yarim cho'l (Nurabot,Urgut,Nurota,Qo'shrabot Samarqand tumani Ohaglik) hududlari kiradi.Manzilgohlar tarkibining xususiyati amalda xo'jalikning barcha aholisini bitta joyga aholisi 3-5 ming, ba'zida 10 minggacha bo'lishi mumkin bo'lgan qishloq markazlariga yig'iladi.Yozgi dala ishlari paytida qishloq markazlari mavsumiy joylar (uzoqdagi keng dalalar) yoki chetki joylashgan (yaylovlarda) fermer xo'jaliklar qoshidagi qishloqlar bilan to'ldiriladi.Manzilgohlar tarmoqlari mozaikali va teks uzluksiz joylashgan modellarga nisbatan siyraklashgan aholi turar joylari orasidagi masofa bu zonada 6-9 km ni tashkil etadi yuqorida ko'rsatilgan modellarga nisbatan 2-3 barabar katta.Hududdagi mahalliy joylashuv tizimining va xo'jalik ichidgi bo'g'inlarning masshtabi ham katta markaziy qishloqning ta'sir doirasi 12-15 km,tuman markazigacha 70 km. Ba'zi tumanlarda yo'l- transport tarmoqlari bir biridan keskin farq qiladi.

5.Tik balandlikdagi yo'nalishda tarqalib joylashgan model zonasi. Bu zona qishloq xo'jalik ishlarining joylardagi iqlim sharoitiga moslashgan tog'li tumanlarning vaziyatini ko'rsatadi.Bu modelga Samarqand viloyatining barcha tog'li hududlari kiradi.Hududning katta qismida, tog'li yaylovlarda chorvadorlik bilan shug'ilaniladi. Bu holat asosiy baza bo'lgan qishloqlardan uzoq masofalarda, baland tog'li yaylovlarda ,yozgi mavsumiy joylarni, ba'zi hollarda maxsus chorvachilik qishlovlarini va qishki turar joylarini paydo bo'lishga sabab bo'ladi.Dehqonchilik hududlarning faqat erga ishlov berish mumkin bo'lgan joylarida rivojlanadi.Tarixiy sharoitlar va etnik va an'analar vohalarda va tog'lar orasidagi soylardagi yirik qishloqlarni vujudga kelishga olib keladi.Tekislikdagi hududlarga nisbatan tog'li tumanlarga nisbatan tog'li tumanlarda qishloq joylashuvi o'lchamlari keskin o'zgaradi, odatda 2-4 kishi/ km, kv manzilgohlar zichligi 4-5 kishi 1000 km kv, va ko'proq. Iqlim sharoitining xususiyatlariga qarab, joylarning rellfi va tuman ichkarisida ishonchli transport aloqalari qiyinlashadi.

6. Shahar atrofida joylashgan model zonasi. Bu modelga amalda yuqorida ko'rsatilgan zonalar hududining 1 soatgacha – katta shaharlar, 1,5 soatgacha- yirik va 2- soatgacha eng yirik shaharlarda transportda davom etadigan ta'sir doirasiga kiradi. Shahar atrofiga maxsus ko'rib chiqilishi kerak qishloq joylashuv turlarini ajratish muhim: qishloq aholisining shahar- markazi va boshqa shahar manzilgohlari bilan chambarchas bog'liqligini, shahar atrofidagi intensiv qishloq xo'jaligi funksiyalarining (sanoat va hokozlar) shahar atrofidagi – rekreasiya funksiyalari bilan birlashishi. Shahar atrofida joylashuv modeli jamiyat rivojlanishida shaharlar rolining oshish jarayonlarining qishloq manzilgohlari tarkibining soni va sifat xarakteristikasiga ta'sir qilishni yaqqol ko'rsatadi. Aholining ko'p qismini asosiy markazning va boshqa xizmat qilishda qatnashadi. Bu holat hududning transport bilan to'la ta'minlanishiga imkoniyat yaratadi (Andijoni, Ravonak, Oqmachit, Mo'liyon, Pulimug'ob, Bog'ibaland, Motrid, O'zbekkent, Qaynama, Chordara, Kimyogarlar shaharchasi, Yangiariq, Xaymar, Bo'zi, Oxaylik, Yangiobot). Shahar atrofida joylashuv zonasida qishloq aholisining zichligi boshqa zonalariga nisbatan yuqori, qishloq manzilgohlarining zichligi o'ta yuqori bo'lib, transport kommunikasiyalari juda zich joylashgan.

Samarqand viloyati tumanlarini hududlarida qishloq turlarining joylashuvini zona larga bo'lish qishloq aholisiga xizmat qilishni shakllanishdagi regional farqlarni aniqlashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.K.Tursunov, M.U.Umarov, Sh.D.Achilov. Uzbekistan qishloq aholi punktlarini me'moriy rejali tashkillashtirish. Toshkent. TAQI.2012 y.
2. QMQ 2.08.01 - 04. Qurilish me'yorlari va qoidalari. Ma'muriy binolar. Toshkent, 2011
3. M.B.Xudoyarova. Aholi punktlari jamoat markazlari Samarqand. Zarafshon nashiryoti 2019 y.
4. Kuysinova F.Z.Xudayarova M.B. Samarqand viloyati qishloqlarida jamoat markazlarini shakllantirish, "Me'morchilik va qurilish muammolari" ilmiy texnik jurnali, Samrqand: Sam DAQI 2019.№ 1.
5. Farangiz, Kuysinova "Samarqand viloyati qishloq jamoat markazlari tarkibini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari". Disertatsiya 2020 y.
6. Farangiz, Kuysinova. "WAYS OF FORMING AND DEVELOPING COMMUNITY CENTERS." JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE (2023): 280-284.
7. Farangiz, K., & Siroj, T. (2024). SHAHRISABZ SHAHRINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI. Sinergiya: raqamli tergovning intizomiy jurnali (2995-4827), 2(4), 16-20.
8. Зубайдуллаев, У. З., & Тангирова, П. (2018). ПАРКОВЫЕ ЛАНДШАФТЫ И ФОРМИРОВАНИЕ ИХ ВИЗУАЛЬНОЙ СРЕДЫ. Актуальные научные исследования в современном мире, (4-12), 46-49.
9. Зубайдуллаев, У. З., Мирзаев, Д. М., & Маматова, С. (2018). ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРНОГО ЛАНДШАФТА В ПРОЦЕССЕ УРБАНИЗАЦИИ. Актуальные научные исследования в современном мире, (4-12), 38-41.